

Surxondaryoda Prezident maktabi ochildi



Surxondaryoda Prezident maktabi ochildi

Tadbirda Surxondaryo viloyati hokimi To'ra Bobolov, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'lrim muassasalari agentligi direktori Hilola Umarova, viloyat mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash boshqarmasi boshlig'i o'rinosari, senator Orziqul Soatovlar so'nggi yillarda mamlakatimiz ta'lrim tizimida yuz berayotgan o'zgarish va yangilanishlar chuqur bilimga ega, har taraflama barkamol yosh avlodni tarbiyalashga xizmat qilayotganini alohida ta'kidladi. Xorijnikidan qolishmaydigan barcha zamonaviy sharoitlarga ega Prezident maktablari ham eng iqtidorli va bilimga chanqoq o'g'il-qizlar uchun keng imkoniyatlar eshigini ochgani qayd etildi.

Termiz shahrining qoq markazida qad rostlagan muhtasham ta'lrim muassasasi 168 o'ringa mo'ljallangan bo'lib, bu yerda o'quvchilarning fan sirlarini mukammal egallashi uchun barcha qulaylik yaratilgan. Sinfxonalar eng so'nggi rusmdagi zamonaviy jihozlar bilan ta'minlangan. Yuqori tezlikka ega internet tarmog'iga ulangan.

Salobatli ta'lif muassasasida qurilgan sport va boshqa tadbirlar o'tkaziladigan zallar, oshxona, yotoqxona kabi qo'shimcha xonalar ham yuksak did bilan jihozlangan.

Viloyatda bunyod etilgan yangi ta'lif muassasasiga o'qishga kirish uchun joriy yilda o'tkazilgan ilk test sinovlariga 9 ming 676 nafar iqtidorli o'quvchi hujjat topshirdi. Yoki bir o'ringa o'rtacha 67,7 nafardan talabgor to'g'ri keldi. Ularning eng yuqori ball to'plagan 144 nafari mактабning 5-,6-,7-,8-,9-,10 sinflariga o'qishga qabul qilindi.

-Ikkinchi o'g'lim Dilshodjon Ergashev axborot texnologiyalariga juda qiziqadi, - deydi termiz shahrilik Tursoat Ibragimov.- Shuningdek, boshqa fanlar bilan birga ingliz tilini ham chuqur o'rganmoqda. Boshqa yoshlар qatori u ham Prezident mактабida o'qish istagini bildirib, hujjat topshirgan edi. Barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o'tib, shu mактабning ilk o'quvchilari safidan o'rнin oldi. Gapning ochig'i, yangi ta'lif muassasasida farzandlarimiz uchun yaratilgan sharoitlarni ko'rib boshimiz osmonga yetgudek bo'ldi. Farzandlarimiz baxtu-iqboli va mamlakatimiz ravnaqi yo'lida ko'rsatilayotgan bunday e'tibor uchun Prezidentimizdan minnatdormiz.

Darslar ingliz tilida o'tiladigan mazkur mактабda o'quvchilarga eng tajribali 12 nafar xorijlik va 20 nafar mahalliy pedagog saboq beradi.

Tantanali marosim yakunida ishtirokchilar Prezident mактабida yaratilgan sharoitlar

Iran yaqindan tanishdi:






Image not found or type unknown

